

## MUSIQA O'QITISHDA INKLYUZIV TA'LIM

Sohibaxon Asqarova

QDPI, Musiqa ta'limi kafedrası dotsenti

Abduhalilova M.

Olimova F.

Turdimatova M.

Muxiddinova M.

Sotvoldiyeva O.

Asatullayeva D.

3-bosqich talabalari

### Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakatimizda ta'lim muassasalarida nuqsonli bolalarga ta'lim-tarbiya berishda inkyuziv ta'lim muammolari, imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitish ularni o'ziga xos xususiyatlari, musiqa harakatlari yordamida o'rnatiladigan metro ritmik va eshitish qobiliyatlarini rivojlantirish kabi ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** inkyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar, ta'lim-tarbiya berish, musiqa qobiliyatlar, musiqa darslari, mashqlar turlari.

### Annotation

This article provides information on the problems of inclusive education in educational institutions in our country in the provision of education for children with disabilities, the training of children with disabilities in general educational conditions, their peculiarities, the development of rhythmic and auditory skills of the metro, which are established using musical movements.

**Keywords:** inclusive education, children with disabilities, educational training, musical abilities, music lessons, types of exercises.

Bugungi kunda O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida "Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta'lim loyihasi" asosida ish yuritib kelinmoqda. Bu borada Respublikamizda amalga oshirilayotgan bir qator ishlar alohida tahsinga sazovordir. Xususan, 2020 yil 13-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4360-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori Respublika bo'yicha rivojlanishida nuqsoni bo'lgan

bolalarning inklyuziv ta'lim-tarbiya olishi uchun bir qator afzalliklar yaratib berishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda inklyuziv ta'lim muammosi butun dunyoda dolzarbdir, chunki kerakli bilimlarni olish bolaning jismoniy holati bilan cheklanmasligi kerak. Tug'ma va orttirilgan nuqsonlari bo'lgan bolalar soni har yili o'sib bormoqda. Shu sababli, ushbu muammo alohida e'tibor talab qiladi, chunki ta'lim barcha bolalar uchun muhim faoliyatdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda joylardagi XTVning xalqaro YUNESEF tashkiloti bilan hamkorlikda "Inklyuziv" ta'lim orqali bolaga do'stona munosabat muhitini shakllantirish" loyihasi amalga oshirilmoqda. Jumladan, 11ta tumanda jami 110 ta maktabda 210 nafar imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv tarzda ta'lim olishi aniqlangan. Manitoring natijalarining tahlillaridan bilish mumkinki, hozirgi kunda inklyuziv sinflari mavjud maktablar soni mamlakatimizda 117 ta bo'lib, inklyuziv sinflardagi imkoniti cheklangan o'quvchilar soni 378 nafarga etgan.

J.Bruner esa "Shaxsning tarkib topishi bilan ta'lim o'rtasida o'zaro aloqa mavjudligini ta'kidlab, insonning kamolot sari intilishi bilim olish samaradorligini oshirsa, o'qitishning takomillashuvi uning ijtimoiylashuvini jadallashtiradi", - deb uqtiradi.

Shuningdek, rus olimlaridan L.S.Vigotskiy, I.I.Mamaychuk, L.P.Koskovoy, O.S.Nikol'skaya, V.C.Manova-Tomova, YU.S.Alyonina, V.S.Muxina, A.A.Bodalyov kabi olimlar o'zlarining ilmiy ishlarida imkoniyati cheklangan bolalarni pedagogik-psixologik korreksiyalash masalalari bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borganlar.

O'rta Osiyo mutafakkirlari Imom Buxoriy, Abu Iso Muhammad at-Termiziy, Ibn Sino, Forobiy, Beruniy, Mirzo Ulug'bek, YUsof Xos Hojib, Imom G'azzoliy, Bahovuddin Naqshband, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Avaz O'tar kabi allomalarning asarlarida oila va jamiyatda yoshlar tarbiyasi va uning kamolotida pedagogik-psixologik yondashuv muammosi to'g'risidagi ilmiy va ilmiy pedagogik mushohadalari bizgacha etib kelgan.

Hozirgacha mamlakatimizda ta'lim muassasalarida nuqsonli bolalarga ta'lim-tarbiya berishda inklyuziv ta'lim muammolarini G'.B.SHomarov, R.SHomahmudova, A.Berdieva, O.U.Ablaev, D.S.Qaxarova kabi olimlarning tadqiqot ishlarida muammolar nazariy jixatdan o'rganilgan.

Imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitish ularni o'ziga xos xususiyatlari, nuqson turi, darajasi va sinfdagi bolalar sonini e'tiborga olgan holda tashkil qilinadi. Avvalo shuni ta'kidlash joizki, o'quvchilarning yoshlari bir xil bo'lsada, lekin ular bir birlariga o'xshamaydilar. Barcha bolalarning individual psixologik shaxs xususiyatlari, qabul qilish darajasi, zehn va idroki turlichadir. Shu bois maxsus ehtiyojga ega bo'lgan bola ta'lim olayotgan inklyuziv sinflardagi o'quv tarbiya jarayonini tashkil etish masalasi yanada murakkabroq muammolarni hal etishni talab etadi. Inklyuziv sinfda o'qituvchi bolalarning imkoniyatini e'tiborga olib, darslarni shunga muvofiq rejalashtira olsa, bolalarning nogironligi bilim olishiga qanday ta'sir qilishini bilib, bu qiyinchiliklarni bartaraf etishning uslubiy

yo'llaridan foydalansa, maktab va oila hamkorligini to'la yo'lga qo'ya olsa hamda nogiron bolaning kelajagiga ishonch bilan qarasagina dars jarayoni muvaffaqiyatli kechishiga erishish mumkin.

Musiqada darslari maxsus reja asosida o'tkazilishi kerak. Siz katta qiyinchilik bilan berilgan va talabani haddan tashqari kuchlanishiga olib keladigan vazifalarni qo'yolmaysiz. Asta-sekin, voqealarni majburlamasdan, bolaning ahvolini diqqat bilan kuzatib, o'qituvchi ushbu darsda talaba qancha materialni o'zlashtira olishini "instinktiv ravishda" his qilishi kerak.

Nogiron bola bilan ishlash jarayonida ko'pincha texnik qurilma, ya'ni qo'llar bilan bog'liq muammo yuzaga keladi. Bunday bolalarda mushak tonusi deyarli har doim pasaygan yoki ko'tarilganligi sababli, nevrologik muammolar va nozik vosita qobiliyatlari buzilgan. Bunday holda, ushbu muammoni hal qilish uchun barmoq gimnastikasini darslarga qo'shish kerak, bu asbob bilan o'zaro ta'sirni sezilarli darajada yaxshilaydi.

Musiqada harakatlari yordamida o'rnatiladigan metro ritmik va eshitish qobiliyatlarini rivojlantirish ham bir xil darajada muhimdir. Bola yuradi, yuradi, qarsak chaladi, bajariladigan ishning xususiyatiga muvofiq turli xil vazifalarni bajaradi. Bularning barchasi sizga "butun" talabani jarayonga kiritish, iloji boricha ko'proq o'rganish zonalaridan foydalanish va rivojlanish uchun har qanday mahoratdan foydalanish imkonini beradi.

Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi – imkoniyati cheklangan o'quvchilarga samarali bilim olish uchun sharoit yaratishdir. Ushbu sharoitda imkoniyati cheklangan o'quvchilarga integratsiyalash va reabilitatsiya qilish, har bir bolaning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ularga mos samarali inklyuziv ta'lim turini tanlash lozim. Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan jamiyatimizda barcha uchun ta'lim olish imkoniyati mavjuddir. Shunday bolalar borki, ularning jismoniy imkoniyati cheklangan bo'lishiga qaramay iste'dodi, qobiliyati, aqliy salohiyati e'tiborga loyiqdir. Shuning uchun ularning kelajagiga befarq qaramaslik, ularni jamiyatimizga, davlatimizga munosib farzandalar qilib tarbiyalash biz pedagoglarning sharaflari va vazifamizdir.

Shunday qilib, biz nogiron bolalarni ijtimoiy himoya qilish, ularni jamiyatga integratsiya qilish, ta'lim olish, o'qitish, qayta tayyorlash uchun sharoit yaratishimiz mumkin. Hozirgi yosh avlod bizning kelajagimizdir. Ushbu yosh avlod orasida oddiy bolalar ham, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar ham bor. Shuning uchun biz bu bolalarni ajratib ko'rsatmasligimiz kerak, balki barchaga bir xil nuqtai nazardan qarashimiz, ularga kelajakka yo'l ochishlariga yordam berishimiz kerak. Bizning fikrimizcha, musiqada maktabda o'qiyotgan sog'lom bolalarning ijodkorligini rivojlantirish nogiron bolalarning bilim olishiga yordam beradi. Ular cheklangan imkoniyatlarga qaramay, san'atning shifobaxsh kuchiga murojaat qiladigan bolani ko'rib, tez rivojlanmoqda. Va bu ular o'rtasidagi do'stona, birodarlik munosabatlarining o'sishiga yordam beradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4360-son "Alohida ta'lim ehtoyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
2. Qaxarova D.S. Inklyuziv talim texnologiyasi. Monografiya –T.: 2014. –B. 9
3. Staroverova M. S., Kovalev E. V., Zaxarova A. V. va boshqalar. inklyuziv ta'lim. Nogiron bolalar bilan ishlaydigan o'qituvchining ish stoli kitobi: uslubiy qo'llanma. - M.: gumanitar nashr. Vlados markazi, 2011 yil. 167 s.
4. Vinevskaya A. inklyuziv ta'limni amalga oshiradigan o'qituvchilar uchun amaliy materiallar. - Yekaterinburg: Ridero, 2016 Yil. 192 s.
5. Аскарова, Сохибахон Мухаммаджоновна. "Особенности певческого мастерства школьников в подростковом возрасте." Oriental Art and Culture 4.1 (2023): 874-878.
6. Askarova, S. "DEFECTS IN THE VOICE OF PUPILS AND WAYS TO ELIMINATE IT." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.11 (2022): 418-420.
7. Askarova, S. M. "EDUCATION OF SINGING SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN." (2023).
8. Asqarova, S. "XOR VA XORSHUNOSLIK FANI DARSLARIDA KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH." Eurasian Journal of Academic Research 2.7 (2022): 62-65.
9. Sohibaxon, Askarova. "PECULIARITIES OF ORGANIZATION OF MUSICAL-RHYTHMIC ACTIVITY IN MUSIC CULTURE CLASSES." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.3 (2023): 536-539.
10. Mukhammadzhonovna, Askarova Sohibaxon, and Kuserbayev Zhanbolat Asetovich. "MORAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH THE ART OF MUSIC AND SINGING." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.02 (2023): 12-16.
11. Asqarova, S. "MUSIQIY TA'LIMIDA ABU ALI IBN SINO MEROSIDAN FOYDALANISH." Interpretation and researches 1.1 (2023).
12. Asqarova, S., and M. Xayitboyeva. "UMUMTA'LIM MAKTABIDA XOR TO'GARAGI MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." Interpretation and researches 1.1 (2023).